

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XAKIMOV ABBOSXON ORIBJON O'G'LI

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHI
TARBIYALANUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NAMANGAN– 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Xakimov Abbosxon Oribjon o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyasi..... 3

Хакимов Аббосхон Орибжон угли

Технология развития читательной грамотности у учащихся подготовительной группы дошкольных образовательных организаций 23

Xakimov Abbosxon Oribjon ogli

Technology of development of reading literacy in students of the preparatory group of school educational organizations..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список использованных работ

List of publications 50

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

HAKIMOV ABBOSXON ORIBJON O'G'LI

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHI
TARBIYALANUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NAMANGAN– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2025.2 PhD/Ped.2658 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namspi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asranbayeva Munajatxon Xalimjanovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
professor

Rasmiy opponentlar:

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Djamilova Nargiza Nuriddinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti.

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengashning 2025-yil "30" 07 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-10-97; e-mail: info@namspi.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (965 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-10-97)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil "17" 07 daqiqa 6 - raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Qodirxanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik kengash raisi,
k.f.d. (DSc), dotsent

S.X.Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik kengash ilmiy
kotiibi, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

X.Y.Najmiddinova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bolaning boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish sifatli maktabgacha ta'limning zamonaviy shakllarini joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Janubiy Koreya, Angliya, AQSH, Yaponiya, Rossiya va Germaniya kabi mamlakatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va bilishga qiziqishni shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bolalarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashga turtki beruvchi muhitni yaratish va o'quv-bilish faoliyatlarini samarali tashkil etishning innovatsion texnologiyalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilganligi bu boradagi xorijiy tajribalarni ommalashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda maktab ta'limiga tayyorlashda bolalarning qiziqishi, iqtidori, yoshga xos bo'lgan pedagogik, psixologik xususiyatlari va madaniy ehtiyojlarini ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq qilish, bolalarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish hamda bola ta'limi va rivojlanishiga integratsion yondashuvni ta'minlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarini shakllantirish boshlang'ich ta'limda muvaffaqiyatli o'qishni davom ettirish omili sifatida e'tirof etilib, bolalarni savodxonlikka o'rgatish metodikasini takomillashtirish, xususan, o'qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan shakl, metod va vositalarni aniqlash hamda ularni nazariy va amaliy jihatlarini asoslash, maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ota-onalar hamda tarbiyachilarning o'zaro hamkorligini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati ishlab chiqilib, bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish, maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, bolalarning rivojlanishi va umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini baholash mexanizmlarini yaratish va joriy etish bo'yicha keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Harakatlar strategiyasidan –Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini 80 foizga yetkazish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish ustuvor yo'nalishlarning maqsadlari sifatida belgilab qo'yildi¹. Bu islohotlar jarayonida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlariga muvofiq katta maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini yaratish, jumladan, bolalarda o'qish savodxonligini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni maktab ta’limiga tayyorlash, bolalarning nutqini o‘stirish va savodga o‘rgatishning pedagogik-psixologik va metodik jihatlariga oid tadqiqotlar D.Boboyeva, G.A.Berdaliyeva, N.X.Rahmonqulova, R.Sunnatova, I.I.To‘ychiyeva, G.A.Ruziyeva, F.A.Abdig‘opirova, K.A.Sabirova, G.O.Najmiddinova, N.Sh. Nurmuhamedova, L.R.Mo‘minova, M.Asqarxo‘jayeva, G.S.Alixodjayeva, N.T.Jo‘rayeva, S.Ch.Xo‘jamiyarov, maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari F.R.Qodirova, Sh.Shodmonova, P.Yusupova, Sh.Sodiqova, M.K.Abduhakimova, D.A.Abduraximova, G.E.Djanpeisova, N.Sh.Abdullayeva, G.M.Nazirova, T.L.Xurvaliyeva, I.I.To‘ychiyeva, N.J.Abdusamatova, Sh.K.Xujamberdiyeva va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan E.I.Tixeyeva, O.L.Zaharova, I.V. Chuykova, O.V. Evdokishina, L.E.Jurova, M.I.Kuznetsova, V.I.Yashina, O.S.Ushakova, M.M.Alekseyeva kabilar maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish orqali o‘quv-bilish faoliyatga tayyorlash masalalarini tadqiq etganlar.

W.Barnett, L.C. Ehri, E.Djonov, L.Espinosa, C.Snow, A.Hindman, S.Kagan, P.Pearson, W.Teale kabi xorijiy olimlar bolalar savodxonligiga oid tadqiqotlarni olib borganlar.

Biroq innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasining ishlab chiqilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib borish zarurligini taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq B.M-24 “Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari” mavzusi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning amaliyotdagi holatini o‘rganish va pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish;

– tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

– maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni modelini ishlab chiqish;

– tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarining rivojlanganligini baholash mezonlarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahar, Namangan, Andijon va Surxondaryo viloyati MTTlarining 518 nafar tarbiyalanuvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonining mazmuni, shakl, usullari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, ekspert baholash, nazariy tahlil, faoliyat natijalarini o‘rganish, savol-javob, umumlashtirish, materiallarga matematik va statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati va pedagogik-psixologik jihatlari savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotining integrativ xususiyatlari hamda tarbiyalanuvchilar o‘qish savodxonligining rivojlanganlik darajasini tizimli tashxislash jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

– tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan, differensial va individual ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari tarbiyalanuvchilarning o‘qishga ijobiy motivatsiyaga ega bo‘lishi, o‘qish va grafik ko‘nikmalarni namoyon etishi hamda shaxsiy intilishini shakllantirish asosida aniqlashtirilgan;

– rivojlantiruvchi ta’lim muhiti va axborot-resurs ta’minotini yaratish, o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi tayanch kompetensiyalarni (kommunikativ,

ijtimoiy, shaxsiy (“Men” konsepsiyasi), bilish kompetensiyasini) shakllantirish asosida maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni modeli takomillashtirilgan;

– tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarining rivojlanganligini baholash mezonlari nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”ning nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari rivojlanishi sohasiga muvofiq maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni modeli ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari aniqlanib, ilmiy-metodik tavsiyalar asosida “Savodxonlikka o‘rgatish” mashg‘ulotlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining №DGU 44397-raqamli guvohnomasi, Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrda 2024-yil 25-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

maktabga tayyorlov guruhida innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish metodikasi ishlab chiqilgan va pedagogik jarayonda foydalanilgan;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyasining samaradorligi tajriba-sinov ishlarida aniqlanib, olingan natijalar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi natijalarining ishonchliligi foydalanilgan yondashuvlar, usullar, nazariy va amaliy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, ko‘rsatib o‘tilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirishga yondashuvlar, tamoyillari va bosqichlarining aniqlanganligi; maktabgacha ta’lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari asoslab berilgani; tarbiyalanuvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish vositasi sifatida savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotining metodik ta’minotini takomillashtirishning roli va ahamiyati ochib berilgani; innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda tarbiyalanuvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgani bilan sharhlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, tadqiqot materiallari asosida rivojlantiruvchi ta’lim muhiti va resurs ta’minotini yaratish,

o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi tayanch kompetensiyalarni shakllantirish asosida maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni modeli takomillashtirilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan, asosiy materiallar, g‘oyalar tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan savodxonlikka o‘rgatish jarayonini loyihalashtirishda muvaffaqiyatli amalga oshirilgani, bu – bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida yuqori sifatli natijalarni bergani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati va pedagogik-psixologik jihatlari savodxonlikka o‘rgatish mashg‘ulotining integrativ xususiyatlari hamda tarbiyalanuvchilar o‘qish savodxonligi darajasini tizimli tashxislash jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid uslubiy tavsiyalar “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmaning mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan nashr ruxsatnomasi №537258). Natijada maktabgacha ta‘lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga erishilgan;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan, differensial va individual ta‘lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari tarbiyalanuvchilarning o‘qishga ijobiy motivatsiyaga ega bo‘lishi, o‘qish va grafik ko‘nikmalarni namoyon etishi hamda shaxsiy intilishini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalardan Namangan, Andijon, Fargona va Surxondaryo viloyatlari maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2024-yil 3-oktyabrda 03-33-2631-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining tayyorlov guruhi tarbiyachilari uchun “Savodxonlikka o‘rgatish” mashg‘ulotlarining o‘quv-didaktik ta‘minotini takomillashtirilgan;

rivojlantiruvchi ta‘lim muhiti va axborot-resurs ta‘minotini yaratish, o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi tayanch kompetensiyalarni (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy (“Men” konsepsiyasi), bilish kompetensiyani) shakllantirish asosida maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyasining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish holati “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” nomli (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-mayda 194-sonli buyrug‘iga asosan, ro‘yxatga olish raqami 194-325) o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan. Natijada, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning samaradorligini oshirishga erishilgan;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarining rivojlanganligini baholash mezonlari nutq,

muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi kompetensiyalari ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilga doir metodik tavsiyalardan “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmaning mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan nashr ruxsatnomasi №537258). Natijada maktabgacha ta‘lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga sharoit yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya doirasida jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta o‘quv qo‘llanma, Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ush bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta‘limiga tayyorlash strategiyasi sifatida o‘qish savodxonligini rivojlantirish dolzarb muammo ekanligi, maktabgacha ta‘limda o‘qish savodxonligi tushunchasining pedagogik va psixologiyistik mazmuni hamda mohiyati, shuningdek, o‘qish savodxonligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati va xorijiy tajribalar tahlili bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Ma‘lumki, bolaning ta‘lim olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish, bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, umumta‘lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta‘lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta‘minlash maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti(MTT)ga qamrab olingan bolalar dastlabki savodxonlik va hisoblash ko‘nikmalarini oilada ulg‘ayayotgan qamrab olinmagan

bolalarga nisbatan ikki barobardan ham tezroq egallaydilar. Shuning uchun ham tadqiqot ishida MTTlarida tarbiyalanuvchilarni savodxonlikka o'rgatish ularni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim vazifalaridan biri ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etildi.

O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ning "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malaklari" rivojlanish sohasi tarkibida "o'qish malakalari" kichik soha sifatida ajratilgan hamda ushbu sohaning asosiy talabi "bolaning kitob va o'qishga qiziqish bildirishi" kutilayotgan natija sifatida ko'rsatib o'tilgan. MTTlarida savodxonlikka o'rgatish tarbiyalanuvchilarda elementar o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini bajarishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi.

"O'qish savodxonligi" tushunchasi turli ta'riflarga ega bo'lib, uning mohiyati bolaning o'qishga bog'liq bilish, tushunish va amal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ushbu tushunchaga turli ta'riflar berilgan. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

"O'qish savodxonligi" tushunchasining mazmuni va mohiyati

Tashkilotlar va sohalari	Ta'riflar
YUNESKO	O'qish savodxonligi – bu yozma matnlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish va ulardan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar uchun samarali foydalanish qobiliyatidir.
Maktabgacha ta'lim	O'qish savodxonligi – bu bolalarning harflarni ajratish, bog'lab o'qish va so'zlarning ma'nosini tushunishga qaratilgan dastlabki o'quv ko'nikmalaridir.
Pedagogika	O'qish savodxonligi – bu insonning harflarni tanish, ularni bog'lab o'qish, ma'noni anglash va o'qilgan matndan ma'lumot olish qobiliyati. Bu jarayon tarbiyalanuvchining bilim olish va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.
Ijtimoiy pedagogika	O'qish savodxonligi – insonning jamiyatda faol ishtirok etish, yozuvli manbalar bilan muloqot qilish va o'qish orqali axborotni baholash hamda undan foydalanish qobiliyatidir.
Lingvistika	O'qish savodxonligi – bu tilni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik qoidalarni qo'llash va so'zlarni to'g'ri tushunish orqali yozma nutqni anglash jarayonidir.

O'qish savodxonligi – bu bolaning yozuv belgilarini (harflar, so'zlar) grafik ko'rinishda tanib olish, ularni ovozli talaffuz qilish, tushunish, ma'nolash va mazmunni qayta ishlashga oid kognitiv, kommunikativ va psixologik jarayonlarni o'z ichiga oladigan kopkomponentli jarayondir.

Psixolingvistika nuqtayi nazaridan o'qish savodxonligi bolaning yozuv belgilarini tanib olishi, ularni ovozga aylantirishi, ma'no berish va anglash kabi bir necha bosqichli jarayonlardan tashkil topadi. Bu jarayon bolaning nutqiy-hissiy tajribasi, fonematik qobiliyati, kognitiv salohiyati va leksik bilimlari bilan chambarchas bog'liq.

Psixolingvistikada "Bola o'qishni qachon o'zlashtiradi?" degan savolga javob berishda bir necha omillar muhokama qilinadi. Bu omillarga kognitiv yetuklik, fonematik tayyorlik, nutqiy zaxira va leksik boylik, vizual diqqat va xotira,

semantik tushunish qobiliyatlari kiradi. Ushbu komponentlar bola o‘qishga tayyorligining muayyan mezonlari sifatida baholanadi. Tayyorlov guruhidagi bolalarda ushbu komponentlarning shakllanish darajasini aniqlash orqali, ularda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning texnologiyasi ishlab chiqiladi.

Yuqorida qayd etilgan tahlillarga tayangan holda “maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘qish savodxonligi” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi berilgan, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘qish savodxonligi – bu bolaning yosh xususiyatlari, shaxsiy ehtiyojlari va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda, pedagogik ta’sir va rejali o‘quv-tarbiya jarayoni orqali shakllanadigan faol kognitiv va kommunikativ faoliyat ko‘nikmalarining majmuasidir.

Mazkur bobda maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o‘rgatishning asosiy vazifasi bolalarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali to‘g‘ri, ongli ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat ekanligi, shuningdek, bolalar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, bilimlar tizimini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini rivojlantirish ham savodga o‘rgatish davrida muhim ahamiyat kasb etishi, shu bois, bolaning boshlang‘ich sinfda ta’lim olish samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqi qanchalik rivojlanganligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” talablarida 6-7 yoshli bolalarning o‘qish malakalarini rivojlantirishning quyidagi kompetensiyalari ko‘rsatib o‘tilgan. (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” rivojlanish sohasi mazmuni

Bolaning yoshi	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari
	Kichik soha: O‘qish malakalari
	Talab: Bola kitob va o‘qishga qiziqish bildiradi
6-7 yosh	boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so‘zlab beradi; sodda va murakkab gaplarni nutqida qo‘llaydi; so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladi; bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzadi; so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap haqida tushunchaga ega; peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o‘qiydi; bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, she‘r, hikoya); mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘qish va yozish ko‘nikmasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta’minlaydi. Shu bois o‘qishga o‘rgatish bilan yozuvga o‘rgatishni birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Demak, bolaning 1-sinfga qadam qo‘yguncha o‘qish malakalarini egallab olishi, uning “erta rivojlanish” sohasidagi yutuqlari deb tan olinishi mumkin. Agar bola shunday ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lsa, turli o‘quv predmetlaridagi materiallarni mustaqil o‘qib-o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Aksincha, bolaning o‘qish malakalarini yetarlicha egallamasligi uning rivojlanishdan ortda qolishiga hamda o‘quv-bilish faoliyatining yangi elementlarini faol o‘zlashtira olmasligiga olib kelishi mumkin.

Dissertatsiya ishining **“Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”** nomli ikkinchi bobida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli, shuningdek, o‘qish savodxonligini rivojlantirishda tarbiyalanuvchilar faoliyati turlariga texnologik yondashuv tamoyillari atroflicha yoritilgan. Jumladan, interfaol ta’lim, o‘yinli texnologiyalar, AKT, STEAM texnologiyalari, hamkorlik ta’limi, tabaqalash-tirilgan hamda individual ta’lim texnologiyalarini an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish masalalari o‘z ifodasini topgan.

Bola shaxsiyatiga qaratilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalari har bir bolaning o‘ziga xos jihatlariga muvofiq keluvchi ta’lim-tarbiya yo‘llari va vositalarini belgilaydi. Bunda bolalarning yondashuvi va faoliyat tashkil etilishi o‘zgartiriladi, har xil o‘quv materiallari qo‘llaniladi. Ayniqsa, individuallikka asoslangan ta’lim texnologiyasining bosh tamoyili - bolaning o‘ziga xosligini e’tirof etish va uning kamol topishi uchun kerakli hamda yetarli muhit yaratishdir. Har bir bolaning ruhiy-psixologik jihatlarini inobatga olgan holda, alohida yondashuv asosida o‘quv jarayonini boshqacha yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Shu maqsadda o‘quv matnlari, ta’limiy materiallar, ularni qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, o‘quv suhbatlari shakllari, bolalar bilimni tekshirish usullari alohida ishlab chiqiladi va bolalarning bilim egallashi hamda taraqqiyotiga yo‘naltiriladi.

Tayyorlov guruhida STEAM texnologiyasi bolalarni narsalarni tadqiq etish, bayon qilish, tushuntirish va tasvirlash orqali bilim va savodxonlikka bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

STEAM texnologiyalari bolalarning o‘qish qobiliyatini oshirish jihatidan qator ustunliklarga ega:

- birlashtirilgan ta’lim, ya’ni bolalar ilm-fan, badiiy ijod va tilni uyg‘unlikda qo‘llab anglashni o‘zlashtiradi;

- matn bilan amaliy ishni bog‘lash, bunda bolalar matnni o‘qib, shu asosda buyum yasash, rasm chizish, izohlash orqali matnni tushunish va qayta bayon etish malakasi oshadi;

- yaratuvchilik va mantiqiy gapirish taraqqiy etadi, bolalar o‘z g‘oyalarini aniq, erkin va izchil tarzda bayon etishni o‘rganadi;

- o‘rganishga qiziqishning ustunligi; bolada matn va so‘z olamiga mehr paydo bo‘ladi, chunki u o‘z amaliyotida ularni qo‘llaydi;

- muammo asosida fikr yuritish; masalani o‘qib anglash va uni so‘z orqali hal etish tajribasi hosil bo‘ladi.

O‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari samaradorligini oshirishda ta’lim vositalarining o‘rni kattadir. Shu bois, tadqiqot ishida quyidagi didaktik vositalar tasnifi keltirilgan:

- audio-vizual vositalar: bolalar multimedia materiallar (elektron kitoblar, audio kassetalar, multfilmlar) orqali harflar va so‘zlarni tushunib, yod oladi;

- interaktiv doskalar: o‘yin va ta’limni birlashtiruvchi vizual mashg‘ulotlar;

- tabletlar va mobil qurilmalar: o‘qish va yozishni o‘rgatuvchi mobil ilovalar;

- kubiklar va pazllar: harflarni tanish va soʻzlarni birlashtirish koʻnikmalarini rivojlantirish uchun;

- taʼlimiy multfilmlar va videomateriallar: bolalar multfilm qahramonlari bilan harflar, soʻzlar va hikoyalarni oʻrganishi mumkin;

- sheʼr va qoʻshiqlar: harflarni qoʻshiq yoki ritmik sheʼrlar yordamida yodlash;

- kartochka va bukletlar: bolalarga harf va soʻzlarni tanishlari uchun sodda vizual materiallardan foydalaniladi;

- elektron va qogʻoz kitoblar: elektron kitoblar va audio funksiyali anʼanaviy kitoblarni uygʻunlashtirib oʻquv jarayonini samarali qilish mumkin.

Tarbiyalanuvchilarda oʻqish savodxonligini rivojlantirish jarayonida tabaqalashtirilgan oʻqitish oʻquv jarayonining tashkil etish umumiy didaktika tizimiga asoslangan boʻlib, maxsus tashkil ettirilgan bolalarning gomogen guruhlarida, oʻquv jarayonini shaxsga yoʻnaltirishni taʼminlaydi.

Maktabgacha taʼlimda individual taʼlim texnologiyalari har bir bolaning talablari, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda bilim va koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bunday texnologiyalarning baʼzilari:

1. Personallashtirilgan oʻquv topshiriqlari;
2. Individual oʻquv loyihalari.
3. Koʻnikmalarni baholash.
4. Analitik faoliyatlar.
6. Texnologik vositalar.
7. Talablarga moslashuv.


Ushbu texnologiyalar bolalarning individual rivojlanishini taʼminlash va ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi.

Oʻqitishni tabaqalashtirish – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda oʻqitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan Davlat talablarining tayyorlov guruhidagi nutq, oʻqish va savodga tayyorgarlik yoʻnalishining asosiy vazifalari: bolaning til toʻgʻrisidagi tasavvur va bilimlarga ega (antonim va sinonimlarni topa oladi), oʻqish va yozish malakalarini shakllantirishdan iborat. Bola oʻz ona tilining fonetik grammatik tuzilishini biladi, soʻzlardagi birinchi tovushlarni biladi, boʻgʻinlab oʻqiydi, alifbeni biladi deb belgilangan. Bu vazifalarni bajarish uchun tayyorlov guruhida yil davomida jami 72 ta mashgʻulot oʻtkaziladi. Shulardan 36 tasi bolalarning ogʻzaki nutqini oʻstirish boʻyicha, 36 tasi savodga tayyorlash boʻyicha boʻladi. Mashgʻulotlarning davomiyligi 25-30 daqiqani tashkil etadi.

Tadqiqot ishida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida oʻqish savodxonligini rivojlantirishning quyidagi bosqichlari tuzilgan (1-rasmga qarang). Bu bosqichlar bolalarning savodxonlikka qiziqishini va faolligini oshirishiga yordam beradi.

Savodxonlikka oʻrgatish metodikasida oʻzbek tili tovushlar va harflar tizimining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Tarbiyachi savodxonlikka oʻrgatish jarayonida oʻzbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olib mashgʻulotlarni rejalashtirishi lozim.



1-rasm. Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish bosqichlari.

Savodxonlikka o'rgatish jarayonida harflarning bosh va kichik bosma shakli va ularning ishlatilish o'rni o'rgatiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlashni o'rgatish muhim sanaladi. Savodxonlikka o'rgatish davrida tarbiyalanuvchilar so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata oladi, bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi.

O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati bo'lib, bunda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkuri va idrokini tartiblash muhim omil hisoblanadi.


Savodxonlikka o'rgatish mashg'ulotlarida o'quv-didaktik vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish (taxtali, magnitli, interfaol)doska, abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), videoprojektor (ekrani bilan), multimedia, taqdimot (Power Point), didaktik materiallar (rasm, kartochka, plakat, pazllar) kabi ko'rsatma vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun kompyuter video va audio materiallarni qo'llash tavsiya etiladi.

Tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelini yaratish quyidagi sabablarga ko'ra zarur hisoblangan:

- a) bolalardagi kognitiv (aqliy) rivojlanishni qo'llab-quvvatlash;
- b) o'quv jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'minlash;
- c) qiyinchiliklarning oldini olish va savodxonlik bo'yicha orqada qolishni bartaraf etish.

Pedagogik model bu kabi muammolarning oldini olish va bolalarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda samarali usullarni qo'llash imkonini beradi. Modelning asosiy maqsadi maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishdan iborat bo'lib, ushbu maqsad asosida tadqiqot jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan.

O'qish savodxonligini rivojlantirish davlat talablari, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi mazmuniga muvofiq ta'lim texnologiyalarini tanlash va tatbiq etishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya ishlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelida o'z ifodasini topadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli.

Mazkur model maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar, zamonaviy talablar asosida bolalarni maktabga tayyorlash ehtiyojlarini o'rganish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash va takomillashtirish yo'nalishidagi vazifalarni belgilash aynan uning komponentlari sifatida keltirilgan bo'lib, qayta aloqani ta'minlash, tarbiyalanuvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish uchun yangi vazifalar belgilash va amalga oshirishga xizmat qiladi.

Maktabga tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelida didaktik o'yinlar ta'lim shakli, metodi va vositasi sifatida o'z ifodasini topgan. Jumladan, "O'qish malakalari" kichik sohasining kutilayotgan natijalari asosida quyidagi didaktik o'yinlar bolalarda o'qish savodxonligiga oid bilimlarni o'zlashtirish, takrorlash va mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi: "Kodlangan harflar", "Men o'qishni o'rganyapman", "Bo'g'in o'qiymiz", "Harflarni qo'shib o'qiymiz", "So'z top" o'yini, "Bo'g'indan so'z tuzamiz" o'yinlari.

Tarbiyalanuvchilarda o'qish malakasini oshirishda birgalikdagi ta'lim texnologiyalarining ahamiyati katta bo'lib, bu texnologiya o'quv jarayonida bolalarni guruhli, jamiyatdagi va nutqiy ishga jalb etib, birgalikda o'ylash, o'zaro yordam ko'rsatish, suhbatlashish, hamkorlikda o'qish va tushunish sharoitlarini vujudga keltiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish samaradorligi"** deb nomlanib, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga innovatsion yondashuv asosida tashkil etishning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari ishlab chiqilgan va savodxonlikka o'rgatish mashg'ulotlarining samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Tajriba-sinov ishlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Savodxonlikka o'rgatish" va "Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish" mashg'ulotlari, sayr va o'yin faoliyatlari, shuningdek, rivojlanish markazlaridagi bolalarning turli faoliyatlarini qamrab olgan kuzatish va tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Bu jarayonda tajriba-sinovda belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar bajarildi:

– MTTlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayoniga doir o'quv-metodik manbalar (O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha katta yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi)ni o'rganish asosida o'quv-tarbiya jarayonlarni tashkil etish bo'yicha nazariy ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish;

– anketa so'rovi va suhbatlar yordamida MTT tarbiyachilari, tarbiyalanuvchilari hamda ota-onalardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish

jarayonining mohiyati haqidagi mavjud tushuncha va tasavvurlarini aniqlash;

– tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonini zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etish orqali egallagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarining samaradorlik mezonlarini berilgan topshiriqlar yordamida aniqlash.

Tajriba-sinov ishlarida Toshkent Shahar, Namangan, Andijon va Surxondaryo viloyatlaridagi MTTlaridan jami **518** nafar tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari jalb etilib, shundan, tajriba guruhida **257** nafar, nazorat guruhida esa **261** nafar bola ishtirok etdi (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari mazmuni

Tajriba maydonlari	Respondentlar soni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Toshkent shahri, MMT tarbiyalanuvchilari	122	60	62
Andijon viloyati, MMT tarbiyalanuvchilari	126	62	64
Surxondaryo viloyati, MMT tarbiyalanuvchilari	125	64	61
Namangan viloyati, MMT tarbiyalanuvchilari	145	71	74
JAMI	518	257	261

